

XALQ MAQOLLARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH YO'LLARI

Baynazov A., Pedagogika fakulteti, 3-bosqich talabasi

“O‘z tarixini bilmaydigan kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”
“Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta‘sirida ma‘naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. Xalqimizning “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan dono maqoli, o‘ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi”.

Islom Karimov.

Xalqimiz azaldan bola tarbiyasiga alohida e‘tibor bergan. Bola tarbiyasida o‘tana, qavm-qarindosh, qo‘ni-qo‘shnilar faol rol o‘ynagan. Bolani mehnatsevar, odobli, xushmuomala, qo‘rqmas, jasur, mehr-oqibatli, ilmga chanqoq, bilimdon, uddaburon, halol, vatanparvar bir so‘z bilan aytganda barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish bosh maqsad bo‘lgan. Tarbiyada turli usul va vositalardan samarali foydalanilgan. Vositalar ichida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan keng miqyosda foydalanilgan. Xalq og‘zaki ijodi o‘z ichiga turli janrlarni oladi. Bular: xalq qo‘shiqlari, maqollar, matallar, topishmoqlar, afsona va rivoyatlar, asotirlar, naqlar, ertaklar, xalq dostonlari. Bu qatorni yana to‘ldirsak bo‘lar edi. Lekin biz ular orasida eng ixcham va sodda shaklga ega bo‘lgan janr, ya‘ni maqol janri xususida, uning bola tarbiyasida tutgan o‘mi haqida so‘z yuritamiz.

Shu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi. Maqol o‘zi qanday janr? Uning bola tarbiyasida qanday ahamiyatli o‘mi bor? Biz sizlar bilan shular yuzasidan o‘zaro fikrlarimizni o‘rtoqlashmoqchimiz. Bu janrga turli adabiyotlarda turlicha ta‘riflar berilgan. Mana shunday ta‘riflardan birini misol qilib keltiramiz “Xalqning dono, purhikmat ifodalari, yirik madaniyat arboblari, olimlar, davlat arboblarning ibratomuz gaplari, xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarini ixcham shaklda ifodalovchi asarlar maqollardir. “Maqol so‘zi arabcha bo‘lib, “so‘z” demakdir. Maqollarda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo‘nda va albatta, hukm tarzidagi ibratli fikr bo‘ladi.” (S.Ahmedov va boshq. Adabiyot 5-sinf uchun. Toshkent. “Sharq” 2007 yil, 11 – bet).

Maqollar she‘riy va nasriy tuzilishga ega. Ularda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, saxiylik, adolat, insof, do‘stlik, olijanoblik, chin insoniy g‘oyalar, sof muhabbat, ilm olishga da‘vat va shu kabilar o‘z aksini topgan. Bu janrning boshlang‘ich sinf darsliklarida turli shakl va ma‘noga ega bo‘lgan namunalar kiritilgan. Birgina 1-sinf o‘qish kitobining o‘ziga 20 tadan ziyod maqollar kiritilgan. Demak, bu harakat va urinishlar bejizga emas. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash, darslik, o‘quv-metodik qo‘llanmalarni milliy ta‘lim-tarbiya an‘analariga asoslanib yaratish masalalari ko‘tarilgan va shu muammoni hal qilish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatilgan.

Davlat dasturlari va qonunlarida belgilangan harakatlar va vazifalar zahirida nimalar yotibdi? Nima sababdan darsliklarga maqol janri boshqa xalq og'zaki janrlari qatori kiritildi?

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq ravon bo'lishi, ularning dunyoqarashi va ichki dunyosi rivojlanishi, lug'at boyligining oshishi, tasavvurlarining boyishi, ijtimoiy munosabatlarda ijobiy faoliyat ko'rsatuvchi faol shaxs bo'lib yetishishda bu kichik janrning o'rni beqiyos. Chunki maqol janri o'rta asrlardagi va keyingi asrlardagi xalq orasida mashhur bo'lgan, turli maktab va madrasalarda darslik sifatida (o'qitilgan) foydalanilgan asarlar ichida ham maqollardan juda keng va samarali qo'llanilgan.

Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida juda ko'p maqollar qo'llanilgan. Bu asarlar katta-kichik barchaga manzur bo'lgan. Sababi asarlarda xalq og'zaki ijodi janrlarida va biz ta'kidlashimiz kerak bo'lgan janr maqol janrining ajoyib namunalari kiritilgan. Misollardan ko'rinib turibdiki, o'sha asrlarda ham maqol janrining afzalliklarini, xususiyatlarini adiblarimiz va xalqimiz bilishgan hamda uni amalga joriy etganlar. Bugungi kundagi yaratilayotgan boshlang'ich sinf darsliklari esa, asrlar davomida yig'ilgan tajribalarning amaldagi tadbig'i yoki davonchisi deyishimiz mumkin. Demak, bu janr asrlar davomida o'z samarasini bergan, bolalar maqollarning ta'sirida barkamol shaxs bo'lib, voyaga yetishgan. Buyuk ajdodlarimizning buyuklikka erishishida bu janrning hisssasi bordir. Alisher Navoiy, Lutfiy, Ogahiy g'azallarida ham shu mo'jaz janrga murojaat etishgan.

Darslikdagi maqollarga to'xtalsak. Maqollar mavzusi bilim olishga, sog'liq, kasb egallashga oid, vatanparvarlik, odob haqida. Jumladan, oltita odob va bilim olish, uchta mehnat va to'rtta vatanparvarlik mavzusidagi maqollar berilgan. Misol tariqasida quyidagi maqollarni tahlil qilsak "Vatani borning baxti bor" maqoli inson baxtini o'zga narsalarga adashtirib yubormaslikda, baxt Vatanda, uni o'zga yurtlardan izlamaslikda undaydi. "O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir" bu maqol o'quvchilarni o'ylab, mushohada yuritib so'zlashga chaqiradi. Har bir og'iz so'zning qiymatini, qimmatini, oqibatini anglashga o'rgatadi. "Bilimga dunyo yorug', Bilimsizga – qorong'i" maqoli agar inson bilimli bo'lsa, u o'zining oldida uchragan to'siqlarni bemalol yengib o'tishi, kulfatlarni yutuqlarga erishish yo'lidagi ko'priklar deb hisoblashi ta'kidlanadi. Bilimsiz inson esa, kichik ko'ngilsizlikni ham katta baxtsizlikday qabul qilishi, kulfatlarni yo'lidagi to'siqlarday qabul qilishi tasvirlanadi.

"Bilmaganni bildim dema, Qilmaganni qildim dema" bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, o'quvchilarni yolg'on gapirmaslikka undamoqda. Maqollar tarbiyaviy tomondan yordam berish bilan birga o'quvchilarning nutqini o'stirishda, o'z nutqlarini ravon va sodda bayon qilishda, chiroyli nutq so'zlashga ko'mak beradi.

Xalqimiz maqollarni o'z o'mida qo'llay olgan insonlarga "xushshuhbat", "shubati inonkash" deb ta'riflashgan. Ular o'z fikrlarini chiroyli, lo'nda, aniq va albatta ishonchli ifodalashgan. Bu kabi an'analar davomiy bo'lsin.

Biz o`z tadqiqotimizda birgina 1-sinf o`qish darsligini tahlil qildik. Kelgusi tadqiqotlarimizda ushbu mavzuni boshqa darsliklarda batafsil va kengroq o`rganishga harakat qilamiz.